

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ISROILOVA NAVRUZA ABDULXAMID QIZI

**EVRIK TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK TARBIYACHI-
PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Isroilova Navruza Abdulxamid qizi

Evristik ta’lim vositasida bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi 3

Исроилова Навруза Абдулхамид кизи

Методика развития профессиональной компетентности будущих воспитателей-педагогов посредством эвристического обучения 25

Isroilova Navruza Abdulkhamid kizi

The methodology for developing professional competence of future preschool teachers through heuristic education 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications 56

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ISROILOVA NAVRUZA ABDULXAMID QIZI

**EVRIK TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK TARBIYACHI-
PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7052 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namspi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdug'opirova Feruza Akramjon qizi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Tairova Madinabonu Baxtiyarovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari
direktor va mutaxassislarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish
institutini

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «4» 04 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (091 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" 03 kuni tarqatildi.
(2026-yil "19" 03 dagi 34 - raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Qodirxonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Bir martalik ilmiy kengash raisi,
kimyo fanlari doktori (DSc), dotsent

S.X.Mutalov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

H.Y.Najmiddinova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo ta'lim tizimida bolaning ilk rivojlanish davrida sifatli natijaga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri – tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentligidir. Yevropa Ittifoqi huzuridagi “Competence Requirements in Early Childhood Education and Care” tadqiqot dasturi materiallarida maktabgacha ta'lim sifati kadrlar kompetentligi bilan uzviy bog'liq ekani, shuning uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda kompetensiyalar tizimini aniq belgilash va amaliyotga joriy etish zarurligi ta'kidlanadi¹. OECDning TALIS Starting Strong xalqaro kuzatuv-tadqiqotlari ham “ilk yillarga investitsiya”, avvalo, Early Childhood Education and Care muassasalarida ishlovchi mutaxassislariga investitsiya ekanini, kadrlarning dastlabki tayyorgarligida yuqori standartlar va amaliy tayyorgarlik komponentlari keyingi kasbiy o'sish uchun “poydevor” bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi². YUNESCO esa maktabgacha ta'lim sohasi uchun kompetensiyaviy yondashuvni me'yoriy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlab, 3-5 yoshli bolalar bilan ishlovchi pedagoglar uchun bilim, ko'nikma va kasbiy mayl-xulqning tizimli tavsifini beruvchi kompetentlik ramkalarini ishlab chiqqan va uni ishlab chiqish jarayonini amaliyotchi pedagoglar hamda tadqiqotchilar ishtirokida “maslahatlashuvchi-ishtirokiy” usulda tashkil etgan³.

Jahon ilmiy-tadqiqot markazlari – OECD, UNESCO IIEP va Learning Policy Institute – tomonidan yaratilgan nazariy ishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bo'lajak tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentligini an'anaviy axborot uzatish modeli asosida emas, balki izlanish, mulohaza, refleksiya, hamkorlik va amaliyot bilan bog'langan evristik ta'lim asosida rivojlantirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jon Kulaxan o'qituvchilik kasbini “uzluksiz ta'lim” siyosati doirasida baholab, pedagog tayyorlash “dastlabki tayyorgarlik-moslashuv-xizmat davomidagi rivojlanish” zanjirida qurilishi lozimligini asoslaydi; demak, bo'lajak tarbiyachi-pedagog kompetentligini bir martalik kurs emas, balki bosqichma-bosqich va izchil metodika asosida shakllantirish talab etiladi. Paulu Santyago o'qituvchi sifati tarkibiga pedagogik ta'lim, fan va metodika bilimi, sertifikatlash, tajriba hamda xizmat jarayonidagi kasbiy rivojlanishni kiritadi; shu bilan birga, u o'qituvchi sifati o'quv natijasiga ta'sir etuvchi maktab eng muhim ichki omillaridan biri ekanini ko'rsatadi. Eleonora Vilegas-Reymersning YUNESCO IIEP doirasidagi tahlilida pedagogning kasbiy rivojlanishi qisqa muddatli seminar emas, balki pre-service tayyorgarlikdan boshlanib, kasbiy faoliyat davomida muntazam davom etadigan uzoq muddatli jarayon sifatida talqin qilinadi.

¹ Urban, Mathias; Vandembroeck, Michel; Lazzari, Arianna; Van Laere, Katrien; Peeters, Jan. Competence Requirements in Early Childhood Education and Care: Final Report (CoRe). Issued by: European Commission, Directorate-General for Education and Culture. London & Ghent: University of East London; Ghent University, September 2011 (Completion date: October 2012). – B.7, 21.

² OECD. Building a High Quality Early Childhood Education and Care Workforce: Further Results from the Starting Strong Survey 2018 (TALIS). Paris: OECD Publishing, 2020. – B.4-5.

³ UNESCO; Pacific Regional Council for Early Childhood Care and Education (PRC4ECCE). Early Childhood Care and Education (ECCE) Teacher Competency Framework for Pacific Small Island Developing States (Pacific SIDS). Paris: UNESCO; UNESCO Bangkok Office; PRC4ECCE, 2018. – B.1-2, 5-6.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish, bu jarayon uchun zarur pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy kompetentlikning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va uning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini asoslash alohida ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur ilmiy-amaliy masala kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ijodiy faoliyat va ijodiy fikrlashning ta’siri katta ekanini namoyon etgani holda, talabalarga bilim berish va kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi didaktik jarayonni bir butun shaklda loyihalashga tayanish zarurligini taqozo etadi. Shu ma’noda ta’lim-tarbiya muhitida mustaqil qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatni tahlil qilish va yangi yechim topishga asoslangan evristik ta’lim vositalarini bo‘lajak tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga uyg‘unligini ta’minlash o‘qitishning eng samarali mexanizmlardan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-sonli “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyatiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizning pedagog olimlaridan R.X.Djurayev, O‘.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Ch.T.Shokirov, G.N.Ibragimova, F.I.Yuldashev, I.M.Sirojiddinov, G.Sh.Shirbacheeva, N.M.Qo‘chqorov, S.S.Smirnovalar⁴ tomonidan bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy

⁴ Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: автореф. дис. ... док.пед.наук. – Ташкент, 1995. – 43 с. Абдузализова Вероника В. “Совершенствование научно методических основ подготовки будущих педагогов профессионального образования к педагогическому творчеству”, автореф.(PhD) 13.00.05/ – Ташкент, 2018. – 24 б. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Дис. ...пед.фан.докт. – Тошкент, 2004. – 314 б. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари: Дисс. ... пед.фан.номз. – Тошкент, 2001. – 140 б; Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти: пед.фан.докт. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 264 б. Шокирова Ч.Т. Талабаларнинг ижодий фикрлашини ривожлантириш ва дастурий назорат асосида ўқитиш самарадорлигини ошириш. Дисс. ... пед.фан.ном. – Андижон, 2009. – 132 б. Ибрагимова Г.Н.

faoliyatga tayyorlash, ulardagi kasbiy sifatlarni rivojlantirishning dolzarb masalalari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan.

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik usullar orqali rivojlantirish masalalari A.R.Aripjanova, Sh.Pozilova, F.Sodiqova, K.Yusupova, B.E.Karimova, M.B.Urazova⁵lar tomonidan o'rganilib, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

MDH davlatlarida bo'lajak pedagoglarda umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda evristik ta'limning nazariy asoslari va metodikasiga oid tadqiqotlar A.V.Xutorskiy, V.I.Andreyev, Y.V.Mulyukova, Y.A.Pchelin, V.N.Sokolov, N.A.Donchenko, A.D.Korol, T.A.Batyayevalar⁶ tomonidan olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda J.P.Guildford, M.I.Stein, E.P.Torrance, Mc L.Cabe, A.P.Altshuller, R.Epstein, J.Gordon⁷ kabi olimlar pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini ijodiy, evristik metod orqali rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etib, shaxsning yaratuvchanlik modelini ishlab chiqishgan.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda hamda xorijiy davlatlarda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi yetarli darajada kompleks va tizimli

Бўлажак мактабгача таълим мутахассисларини касбий инновацион фаолиятга тайёрлаш. Педагогика фанлари доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2021. – 60 б. Юлдашева Ф.И. Олий таълим ташкилотлари талабаларининг педагогик касбий компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик имкониятлари. Пед.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферати. – Тошкент, 2022. – 50 б.

⁵ Арибжанова А. Р. Развитие креативного потенциала педагогического состава ВУЗа в условиях информатизации образования. Автореферат, 13.00.01. 2017. – 54 с. Позилова Ш. “Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси”. 13.00.05-Касб хунар таълими назарияси ва методикаси” (PhD) автореферат. – Тошкент, 2019. – 24 б. Садиқова Ф. Талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштириш, Педагогика фан. фал. док.(PhD) дисс...автореф. – Тошкент, 2021.– 22 б. Юсупова К. Креативлик компетенциясини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фан. фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 24 б. Karimova B.E. Kreativ pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. – 320 b. Urazova M.B. Бўлажак касб таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Педагогика фан. бўйича докторлик (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент, 2015. – 78 б.

⁶ Хуторской А.В. *Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного обучения.* – Москва, Изд-во МГУ, 2003. – 416 с. Андреев В.И. *Эвристика для творческого саморазвития. Учебное пособие.* – Казань, 1994. – 247 с. Мулюкова Е.Э. *Эвристические методы обучения как фактор развития личностного опыта студента.* Дисс. на соискание ученой степени канд.пед.наук. Оренбург, 2004. – 184 с. Пчелина Е.А. *Педагогическая организация эвристической деятельности студентов вуза.* Автореферат дисс. на соискание ученой степени канд.пед.наук. Великий Новгород, 2005. – 23 с. Соколов В.Н. *Методологические и теоретические основы педагогические эвристики.* Дисс. на соискание ученой степени канд.пед.наук. – Самара, 1999. – 464 с. Донченко Н.А. *Организационно-эвристическое обеспечение обновления образовательного процесса.* Автореферат дисс. на соис. ученой степени канд.пед.наук. – Красноярск, 2005. – 32 с. Батяева Т.А. *Системно-целевой подход в применении эвристических приёмов в обучении студентов решению нестандартных задач.* Дисс. на соискание ученой степени канд.пед.наук. – Саранск, 2000. – 203 с.

⁷ Guilford J. P. [Guildford J.P. The Three Sides of Intelligence]. In: *Psikhologiya myshleniya [Psychology of thinking]*. Moscow, 1965, pp. 433–457. Stein M. I. (1953). Creativity and culture. *Journal of Psychology*, 36, 31–322. (Политика образования в условиях глобальной конкуренции. URL: <http://www.viperson.ru> (дата обращения 10.05.2017). Torrance E.P. Creativity and futurism in education: Retooling // *Education*. 1980 (b). V. 100. P. 298–311. Cabe Mc L., Altshuller A.P. Photochemical reactions in the atmosphere // *Ind. Eng. Chem.* 1955. – № 47. – P.101. Epstein, R. (2005). Generativity theory and creativity. In M.A. Runco & R.S. Albert (Eds.), *Theories of creativity* (Rev. ed.). Cresskill, NJ: Hampton Press. Gordon J. *Finding Enlightenment: Ramtha's School of Ancient Wisdom*. 1998, ISBN 1-885223-61-7, Beyond Words Publishing, –P. 164.

ravishda tadqiq etilmaganini qayd etish mumkin. Shu boisdan mazkur masala bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyati yuzaga keldi.

Ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining B.M-24-Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari mavzusi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

falsafa, pedagogika va psixologiya fanlari kontekstida evristik ta'limning talqini va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning evristik ta'lim vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari belgilanib, Navoiy davlat universiteti, Qo'qon davlat universiteti hamda Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 446 nafar talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borish davomida mavzuga daxldor pedagogik, psixologik va metodik manbalar, ilmiy maqolalar hamda monografik ishlar atroflicha o'rganildi va tahlil etildi. Shu bilan birga, tadqiqot maqsadiga muvofiq analitik va qiyosiy yondashuvlar, pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, intervyu, tajriba-sinov ishlari, matematik-statistik qayta ishlash hamda natijalarni tizimlashtirish va umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

falsafa, pedagogika va psixologiya fanlari kontekstida evristik ta'limning gnoseologik kategoriya, mustaqil izlanish, kashf etish va ijodiy faollikka asoslangan ta'lim konsepsiyasi, tafakkurni faollashtiruvchi jarayon, ta'lim texnologiyasining izlanishli-muammoli modeli sifatidagi talqini va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishning yaxlit metodik ta'minotini ishlab chiqishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash orqali reproduktiv

ta'limdan konstruktiv va transformatsion ta'limga o'tishni ta'minlash, kasbiy kompetentlikning kognitiv, kreativ-innovatsion va refleksiv komponentlarini evristik faoliyat bilan bog'liqlikda modellashtirish asosida aniqlashtirilgan;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelining strukturasi (motivatsion-maqсадli, mazmunli-texnologik, refleksiv-natijaviy) komponentlarining o'zaro aloqadorligi evristik ta'limning nazariy, amaliy-metodik asoslari va bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari bilan internal (ichki) integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi innovatsion ta'lim (muammoli va rivojlantiruvchi) texnologiyalari asosida muammoli-izlanishli, kreativ-tadqiqotchilikka yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va "SCAMPER", "Jigsaw" va "Idrok xaritasi"(Ming mapping) metodlarining evristik ta'lim modeliga adekvatligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

evristik ta'limning falsafa, pedagogika va psixologiya fanlari kontekstidagi talqini va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari mazmun-mohiyati ochib berilgan, shuningdek, evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishning yaxlit metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

"Evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish" mavzusida tajriba-sinov dasturi amaliyotga joriy qilingan;

"Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod orqali shakllantirish" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi innovatsion ta'lim (muammoli va rivojlantiruvchi) texnologiyalarini qo'llash jarayonida "SCAMPER", "Jigsaw" va "Idrok xaritasi"(Ming mapping) metodlarining imkoniyatlari aniqlangan va ular oliy ta'lim o'quv jarayoniga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari ilmiy izlanishning nazariy va metodik jihatdan yetarli darajada asoslanganini, ishning izchil hamda mantiqiy tamoyillar asosida tashkil etilganini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida foydalanilgan metod va usullar belgilangan maqsad hamda vazifalarga muvofiq ravishda tanlangan. Shuningdek, yakuniy xulosalar xorijiy va milliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, ularning nazariy yondashuvlari hamda amaliy tavsiyalar negizida shakllantirilgan. Dissertatsiyada bayon etilgan amaliy taklif va tavsiyalar pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik yondashuv asosida rivojlantirishga, ularning fikrlash uslubini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan natijalarning ishonchligi esa ularning tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan ma'qullangani bilan ham tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot doirasida kasbiy faoliyatni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar mazmunan qayta ko'rib

chiqilib, faoliyatning o'ziga xosligi, ijodkorlik darajasi, rivojlanganlik holati hamda moslashuvchanlik kabi mezonlar aniqroq talqin etildi. Shu bilan birga, nostandart fikrlash, tavakkalchilikka tayyorlik, bashorat qilish qobiliyati, integrativ yondashuv va operativlik kabi mezonlarning o'zaro bog'liq holda shakllanishi va bir-birini kuchaytirishiga oid integratsiya jarayoni bosqichlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Evristik ta'lim vositasiga tayangan holda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining dasturi ham maxsus loyihalani, uning bosqichlari, mazmun yo'nalishlari va amaliy tatbiq mexanizmi belgilab chiqildi. Shu asosda umumkasbiy fanlar dasturlari pedagog-tarbiyachilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish tamoyiliga tayangan holda qayta takomillashtirilib, amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

falsafa, pedagogika va psixologiya fanlari kontekstida evristik ta'limning gnoseologik kategoriya, mustaqil izlanish, kashf etish va ijodiy faollikka asoslangan ta'lim konsepsiyasi, tafakkurni faollashtiruvchi jarayon, ta'lim texnologiyasining izlanishli-muammoli modeli sifatidagi talqini va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini bosqichma-bosqich rivojlantirishning yaxlit metodik ta'minotini ishlab chiqishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "IL-402104274 – Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining yagona ma'lumotlar bazasi va elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan. (Qo'qon davlat universitetining 2025-yil 27-oktabrdagi 130-son ma'lumotnomasi) Natijada, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik ta'lim asosida rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan.

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash orqali reproduktiv ta'limdan konstruktiv va transformatsion ta'limga o'tishni ta'minlash, kasbiy kompetentlikning kognitiv, kreativ-innovatsion va reflektiv komponentlarini evristik faoliyat bilan bog'liqlikda modellashtirish asosida aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-oktabrdagi 02/01-01-445-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda evristik ta'lim metodlari va vositalaridan amaliyotda foydalanish imkoniyati yaratilgan;

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelining strukturasi (motivatsion-maqсадli, mazmunli-texnologik, reflektiv-natijaviy) komponentlarining o'zaro aloqadorligi evristik ta'limning nazariy, amaliy-metodik asoslari va bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va

darajalari bilan internal (ichki) integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar "60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini evristik metod orqali shakllantirish" nomli uslubiy qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-oktabrdagi 02/01-01-445-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik ta'lim metodlarini takomillashtirishga sharoit yaratilgan.

evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini innovatsion ta'lim (muammoli va rivojlantiruvchi) texnologiyalari asosida muammoli-izlanishli, kreativ-tadqiqotchilikka yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va "SCAMPER", "Jigsaw" va "Idrok xaritasi"(Ming mapping) metodlarining evristik ta'lim modeliga adekvatligini ta'minlash orqali takomillashtirishga doir takliflardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Bolalar va biz" nomli eshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 31-oktabrdagi 05-09-1720-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan evristik ta'lim metodlarining samaradorligini aniqlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 3 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnalda chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va usullari tavsiflangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodolik

asoslari” deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy tahlili va muammolari, pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda evristik ta‘lim yetakchi vositasi ekanligi, bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy rivojlantirishning amaliyotdagi holati tahlili, shuningdek, “evristika”, “evristik ta‘lim”, “evristik ta‘lim metodlari” kabi tushunchalarning mazmuni o‘z ifodasini topgan.

Zamonaviy ta‘lim tizimining yangi avlod pedagogi – chuqur bilimli, zamonaviy dunyoqarashga ega, innovatsion yondashuvlarni tanlay oladigan va ularni amaliyotga tatbiq etadigan mutaxassis sifatida kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Chunki, zamonaviy tarbiyachi-pedagog ta‘lim va tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil eta olish bilan bir qatorda, har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali pedagogik strategiyalarni qo‘llay olishi, innovatsion texnologiyalarni joriy eta bilishi, muloqot va psixologik jihatdan faoliyat yuritish madaniyatiga hamda kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu bois, kasbiy kompetentlik – professional bilim, amaliy ko‘nikma va shaxsiy sifatlar uyg‘unligini ifodalovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Pedagogik oliy ta‘lim muassasalarining 60110200 – Maktabgacha ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari malaka talabiga muvofiq, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta‘lim va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat olib borish, maktabgacha ta‘lim muammolari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda, MTTlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladilar. Biroq amaliyotda metodik ta‘minotning yetarli emasligi, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalarining pastligi, amaliyot bilan nazariya o‘rtasidagi uzilishlar, talabalarda mustaqil izlanish madaniyatining yetarlicha shakllanmaganligi kabi muammolar bo‘lajak tarbiyachilarda kompetentlikni rivojlantirish jarayoni samaradorligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda va bu muammolarni bartaraf etishda mazkur sohada yangi innovatsion yondashuvlarni talab etilmoqda. Bunda evristik ta‘lim alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u talabalarda muammoli vaziyatda mustaqil yechim izlash, yangi g‘oyalar ilgari surish, izlanish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Evristika” atamasi qadimgi yunonchada “izlayman”, “kashf qilaman” ma’nolarini ifodalaydi. Evristik ta‘lim ta‘lim oluvchining intellektual-ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish, yangi bilimlarni mustaqil kashf etish, bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan pedagogik tizimdir. Unda o‘quv jarayoni talabadagi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, integrativ tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarining rivojlanishiga asoslanadi.

Evristik ta‘limning tarixiy ildizlari Suqrot maktabidan boshlanadi. Keyinchalik Platon, Arximed, R.Dekart, J.Dyui kabi mutafakkirlar, XX asrda esa Y.K.Kulyutkin, O.K.Tixomirov, P.Y.Galperin, I.M.Rozet, V.N.Pushkin, G.S.Altshuller, J.Adamar kabi olimlar evristika masalalarini turli sohalarda tadqiq etdilar. Zamonaviy pedagogikada esa V.I.Andreyev evristik o‘qitish metodlarini tizimlashtirdi, A.V.Xutorskoy esa didaktik evristika nazariyasini ishlab chiqdi va uni barcha fanlarga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi. Tahlillar

natijalariga asoslanib evristik ta'lim va evristik metodlar to'g'risida olimlarning yondalashuvlari keltirilgan (*1-jadvalga qarang*).

XXI asrda uzluksiz ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni kreativ fikrlash, ijodkorlik, intellektual mustaqillik va kasbiy faollikni shakllantirishga qaratilmoqda. Bu kontekstda evristik ta'lim texnologiyalari zamonaviy pedagogik metodikaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

1-jadval

Evristik ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlari

Davr	Vakillar	Asosiy g'oya va hissasi	Xususiyatlari
Qadimgi davr (mil.avv. V–III asrlar)	Suqrot, Platon, Arximed	Suqrotning savol-javob metodi – bilimni mustaqil topishga yo'naltirish. Platon – dialektik fikrlash. Arximed – muammoni ijodiy yechish.	Evristikaning falsafiy va mantiqiy ildizlari shakllandi.
Yangi davr (XVII asr)	Rene Dekart	Aql orqali bilish, metodik shubha, muammoni bosqichma-bosqich hal qilish usuli.	Ilmiy metod va tafakkur jarayonini tizimlashtirish.
XIX–XX asr boshlarida	Jon Dyui	Muammoli ta'lim, tajriba asosida o'rganish (learning by doing).	Evristik yondashuvni pedagogik jarayonga tatbiq qilish.
XX asr o'rtalari (psixologik tadqiqotlar bosqichi)	Y.K.Kulyutkin, O.K.Tikhomirov, P.Y.Galperin, I.M.Rozet, V.N.Pushkin	Tafakkur jarayoni, aqliy faoliyat bosqichlari, muammoni hal qilish mexanizmlarini o'rganish.	Evristikaning psixologik asoslari ishlab chiqildi.
Zamonaviy davr (XX asr oxiri – XXI asr)	V.I.Andreyev, A.V.Xutorskoy	Evristik o'qitish metodlarini tizimlashtirish; didaktik evristika nazariyasini yaratish va barcha fanlarga tatbiq etish.	Evristik ta'limning pedagogik tizimi shakllandi.

Evristik ta'limning bosh maqsadi talabada ijodiy “o'zini-o'zi anglash”ni ta'minlashdan iborat bo'lib, mazkur maqsad fan yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik ta'minotni yaratish va shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarga tayangan holda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish kabi vazifalarni hal etish orqali amalga oshiriladi.

Evristik ta'lim jarayoni pedagogdan har bir talabaning rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, individual qo'llab-quvvatlash hamda kerakli ta'limiy shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Ushbu jarayonda evristik topshiriqlar, savollar va matnlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ular talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, amaliy fikrlashni faollashtirish hamda intellektual tashabbuskorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonidagi kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmuni yangilanib borayotganiga qaramasdan, joriy pedagogik amaliyotda evristik topshiriqlardan yetarlicha foydalanilmayapti. Ko'p hollarda professor-o'qituvchilar va metodistlar evristikaga faqat o'qitish metodi sifatida qaraydilar, uning ijodiy rivojlantiruvchi potentsiali esa e'tibordan chetda qolmoqda. Shu bois,

tajriba-sinov ishlarida evristik ta'limning quyidagi didaktik funksiyalariga alohida e'tibor qaratildi:

- 1) bilim va harakat usullarini mustaqil egallashga yo'naltirish;
- 2) ijodiy fikrlash va bilimlarni yangi vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasini shakllantirish;
- 3) an'anaviy vaziyatlarga yangi muammolarni kiritish imkonini yaratish;
- 4) o'rganilayotgan mavzuning yangi tomonlarini ochib berish;
- 5) metodlarni transformatsiya qilish va yangi faoliyat usullarini yaratish;
- 6) muloqot asosida bilish faoliyatini kuchaytirish;
- 7) o'quv motivlarini shakllantirish.

Evristik ta'lim muammoli va rivojlantiruvchi ta'limdan ta'lim oluvchining faol subyekt sifatida ishtirok etishi, ijodiy tafakkurning ustuvorligi, "tayyor bilim"dan ko'ra "kashf etilgan bilim"ga tayanganlik kabi jihatlari bilan farq qiladi.

Ayrim mutaxassislar evristik metodni faqat taxminiy yechimga ega yo'l sifatida baholaydi, chunki u hamma vaqt yagona to'liq yechimni taqdim etmaydi. Biroq pedagogik amaliyotda ushbu xususiyat teskari holda ijodiy imkoniyatni ochadi – talabalarni bir nechta yechim strategiyalari haqida fikr yuritishga undaydi.

Evristikaning ikki turdagi ta'rifi ilmiy adabiyotlarda uchraydi:

1. Izlanishga asoslangan faoliyat sifatida, murakkab, nostandart muammolar yechimini topishga qaratilgan jarayon.

2. Shaxs tomonidan shakllantirilgan individual yechim usullari majmui.

Pedagogik amaliyotda birinchi yo'nalish ko'proq rivojlangan bo'lib, ikkinchi yo'nalish – bilish layoqati va ichki ijodiy mexanizmlarni rivojlantirish – yetarlicha amalga oshirilmayapti. Bu esa talabalarning bilish faoliyatining reproduktiv (tayyor bilimni qabul qilish) shaklida ustuvor bo'lishiga olib kelmoqda. Shu ma'noda evristik topshiriqlar auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim jarayonlarida muhim pedagogik vosita sifatida qo'llanilishi zarur.

Dissertatsiyada evristik faoliyat tushunchasi doirasida muayyan ruhiy jarayonlar tushunilib, uning natijasida muammolarga yechim topildi, strategiyalar ishlab chiqildi, bir qator yangiliklar qo'lga kiritilgan. "Evristik faoliyat" tushunchasi "Ijodiy tafakkur", "Mahsuldor tafakkur" tushunchalari bilan teng imkoniyatlarga ega. Shunga ko'ra, evristik faoliyat inson tafakkurining rang-barang ifodasi hisoblanadi. Bunday faoliyat natijasida yangi harkatlar tizimi vujudga keladi yoki insonni o'rab turgan obyektlar haqida ilgari ma'lum bo'lmagan qonuniyatlar kashf etiladi. Evristik faoliyatni shakllantirish muammosi ko'pqirrali muammolar sirasiga kirib, evristik faoliyat o'quv jarayonining ko'p jihatlari bilan bevosita bog'lanadi. U ayni bir vaqtning o'zida shaxsni shakllantirish nuqtai nazaridan reja, natija, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish va faollashtirish yo'li, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

M.V.Klarinning ta'kidlashicha, pedagog ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, ushbu jarayon ta'lim oluvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini shakllantirish imkoniyatini yaratishga xizmat qilishi lozim. Shaxsning, shu jumladan, bo'lajak tarbiyachining ijodiy tafakkuri quyidagi xususiyatlarga ega:

- pedagogik faoliyat usullarini o'zlashtirish va keng ko'lamda qo'llay olish;

- muayyan vaziyatlarda pedagogik bilimlar transformatsiyasini amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo'lish;

- muammoli vaziyatlarni yaratish va unda maqbul yechimga kelish usullarini tanlay olish kabilar.

Bo'lajak tarbiyachilarda ijodiy tafakkurning rivojlanishi o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lib, bu birinchi navbatda, ularning kasbiy qiziqishlari, pedagogik bilimlarni qo'llay olish imkoniyatlari, motivlari bilan bog'liq holda pedagogik jarayonlarni tashkil etishni talab qiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida evristik metodlar kognitiv metodlar bilan parallel tarzda qo'llaniladi. Kognitiv xarakterdagi topshiriqlar ham evristik topshiriqlar kabi bo'lajak o'qituvchini mustaqillikka, izlanishga, ijodiy fikrlashga, murakkab pedagogik hodisalarni tahlil qilishga undaydi.

Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi talabalar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. Talabalar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va talabalar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va talabalarning harakatlari

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	Talaba faoliyatining tuzilmasi
-muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va shu asosda ilmiy izlanish jarayonini tashkil etish; -talabalarning bilish, izlanish va tadqiqotchilik faoliyatini maqsadli ravishda yo'lga qo'yish hamda boshqarish; -jarayonning samarali kechishi uchun zarur metodik tavsiya va ko'rsatmalarni berish, ishni muvofiqlashtirib borish; -erishilgan natijalarni tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish ishlariga rahbarlik etish.	- o'quv tadqiqot jarayonida talabaning faolligi, avvalo, ta'limiy muammoning mazmuni va ahamiyatini chuqur tushunib olishi, uning mohiyatiga yetib borishi bilan boshlanadi. - tadqiqot obyektidagi muammoni o'qituvchi hamda guruhdoshlari bilan birgalikda muhokama qilib, aniqlash va to'g'ri ifodalash jarayonida tashabbus bilan ishtirok etishi lozim. -muammoni bartaraf etishda esa talabadan tayyor yo'l yo'riqni kutish emas, aksincha, yechimning maqbul usullari va amaliy yo'llarini mustaqil izlanish orqali topa bilish talab etiladi.

Dissertatsiyaning "Evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi" deb nomlangan ikkinchi bobida evristik ta'lim vositasida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli va metodikasi xususida fikr yuritilgan.


Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachi-pedagoglardan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ijodiy fikrlay olish, muammolarni tahlil qilib yechimiga yo'l topish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda. Bunday kompetensiyalar an'anaviy ta'lim usullarida emas, balki talabaning shaxsiy faolligiga, izlanishiga va ijodkorligiga tayanadigan evristik ta'lim jarayonida samarali shakllanadi.

Shu bois, evristik ta'lim o'quv jarayonining maxsus tashkil etilgan modeli sifatida, unda bilim tayyor holda berilmasligi, aksincha, talabaning mustaqil

izlanishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi, yangi bilimni hayotiy faoliyatda qo‘llay olishi ustuvor hisoblanishi hamda bunday yondashuv talabani passiv qabul qiluvchidan faol subyektga aylantirishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.


Shuningdek, “evristik ta’lim” tushunchasiga quyidagicha **mualliflik ta’rifi** ham berilgan: **Evristik ta’lim** – bu ta’lim oluvchining bilimni o‘zlashtirish obyekti emas, balki **bilimni kashf etuvchi subyekt** sifatida ishtirok etishini ta’minlaydigan, o‘quv jarayonida evristik savollar, keyslar, loyiha va tadqiqot topshiriqlarini tizimli qo‘llash orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’lim modelidir. Evristik ta’lim jarayonida maxsus evristik topshiriqlar, savol-javob texnikasi, muammoli vaziyatlar, reflektiv tahlil, ijodiy loyihalar va pedagogik tajribalar qo‘llanilib, talabalarda kreativ tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik va izlanuvchanlik, muammoni tahlil qilish va yechim topish, pedagogik refleksiya, kommunikativ va ijtimoiy kompetentlik kabi muhim professional sifatlar shakllanadi.

Evristik ta’limning o‘ziga xos didaktik xususiyatlari uni ijodiy, faol, muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi sifatida ko‘rish imkonini beradi. Evristik ta’lim vositasida pedagogik bilimni sub’yektiv o‘zlashtirish, shaxsiy tajribani boyitish, “bilim topish” faoliyatini shakllantirishni nazarda tutiladi hamda evristik ta’limning quyidagi didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin bo‘ladi (*1-rasmga qarang*):



1-rasm. Evristik ta’limning didaktik imkoniyatlari

Tadqiqot ishida talabalarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonda ijodiy va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish malakasini shakllantirish hamda amaliy kasbiy faoliyatda turli vaziyatlarni to‘g‘ri boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishga doir kompleks vazifalarni amalga oshirishda evristik ta’lim vositasida bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli takomillashtirildi (*2-rasmga qarang*).



2-rasm. Evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli

Metodik modelning strukturasi *motivatsion-maqсадli, mazmunli-texnologik va refleksiv-natijaviy* komponentlardan tashkil topgan bo'lib, mazkur komponentlarda ijodiy, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, innovatsion yondashuvga ega tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashga xizmat qiladigan tuzilma o'z ifodasini topgan.

Motivatsion-maqсадli komponentda evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modelning maqsadi etib belgilandi va ushbu maqsadni amalga oshirishda dastlab evristik ta'limning nazariy asoslari (evristik ta'limning funksiyalari, ta'limga evristik yondashuvlar, tamoyillar va bosqichlari)ga tayangan holda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish ko'zda tutildi.

Evristik ta'lim vositasida bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi evristik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- muammoli evristik yondashuv;
- ijodiy evristik yondashuv;
- dialogik evristik yondashuv;
- tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuv.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda evristik ta'limni asosiy vosita sifatida tanlashimizning boisi shundaki, evristik ta'lim bir vaqtning o'zida fikrlashning ikki yo'nalishi: ijodiy (kreativ) va tanqidiy (kritik) fikrlashni rivojlantiradi. Bu evristik ta'limning ijodiy va tanqidiy fikrlash funksiyasi mohiyatini anglatadi. "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Agar shunday bo'lsa-chi?" kabi savollar orqali talabalar fikrlarini erkin va mustaqil bayon etish, g'oyalarni baholash, o'zaro solishtirish, tahlil qilish, qaror qabul qilishning oqilona usullaridan foydalanish, muammo va masalalarga o'z nuqtai nazaridan qarashga o'rganadilar.

Modelning mazmunli-texnologik blokida evristik ta'limning amaliy-metodik asoslari sifatida evristik ta'lim texnologiyalari, shakllari, metodlari va vositalari o'z ifodasini topgan.

Tajriba-sinov ishlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari", "Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi", "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" kabi fanlar bo'yicha amaliy, seminar va mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv topshiriqlarini evristik yondashuv asosida ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Evristik ta'limda loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lib, u talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy va tadqiqot tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal qilish, o'z-o'zini boshqarish va refleksiv baholash kompetentsiyalarini kompleks ravishda rivojlantiradi.

Loyihaviy ta'lim evristik ta'lim g'oyalarni amaliyotga samarali tatbiq etuvchi muhim texnologiya hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari" fani bo'yicha talabalar mustaqil ta'limini loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etishga asosiy e'tibor qaratdik. Buning uchun mustaqil ta'lim topshiriqlariga talabalarga quyidagi loyiha mavzulari rejalashtirildi (*3-jadvalga qarang*):

“Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’lim bo’yicha loyiha mavzulari

3-jadval

Loyiha yo’nalishlari	Loyiha mavzulari
STEAM va tabiiy fanlar	“MTTda mini-robototexnika loyihasi”; “Qo’llab-quvvatlovchi tabiiy muhit: MTTda ekologik mini-eksperimentlar”; “Suv va qum bilan tadqiqot mashg’ulotlari: bolalarning muhandislik va tadqiqot ko’nikmalarini rivojlantirish”.
Ijodiy va amaliy faoliyat	“Bolalarda rang va shakl hisini rivojlantirish uchun interaktiv ko’rgazma loyihasi”; “Qog’oz va qayta ishlangan materiallardan o’yinchoq modellar yaratish”; “Musiqiy va ritmik loyiha: bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish”.
Muammoli va tadqiqotli loyihalar	“MTTda energiya tejash va ekologik madaniyatni rivojlantirish”; “Turli turli materiallardan quvur va ko’priklar qurish: fizika va muhandislik asoslari”; “Bolalarda me’yor va o’lchov tushunchasini rivojlantirish uchun tadqiqot mashg’ulotlari”.
Ijtimoiy va tarbiyaviy loyihalar	“Bolalarda hamkorlik va kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantiruvchi guruhli loyiha”; “Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitga e’tibor va mas’uliyatni uyg’otuvchi loyiha”; “Maqsad va qoidalar asosida ijtimoiy o’yinlar loyihasi”.
Raqamli va multimedia loyihalar	“Interaktiv multimedia mashg’ulotlari orqali bolalarning kognitiv ko’nikmalarini rivojlantirish”; “Qisqa video va animatsiyalar orqali qo’llab-quvvatlovchi STEAM mashg’ulotlari”; “Mobil ilova yoki interaktiv taxtani qo’llab, loyihaviy tadqiqot mashg’uloti o’tkazish” loyihasi.

